

---

## 2023 yilda aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkaziladi.

Har qanday davlatning tarixi – bu, birinchi navbatda, unda yashaydigan xalqning tarixi, aholisining soni va tarkibi, uning iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarida o'z ifodasini topadi. Aholi soni bo'yicha aniq va yaxlit ma'lumotlar aholini ro'yxatga olish asosida olinadi.

Aholini ro'yxatga olish yakunlariga qarab o'tmish va hozirgi davr haqida fikr va mulohazalar yuritish hamda kelajakni prognoz qilish mumkin bo'ladi.

Aholini ro'yxatga olish – aholining yoshi, jinsi, milliy tarkibi, ma'lumot darajasi, nikoh holati, bandligi va boshqa tavsiflari haqida ma'lumotlar olishning yagona axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Aholi hisobini yuritish amaliyoti ilk bor miloddan avvalgi uch ming yillikdan boshlangan. Bu jarayon dastlab Osiyo va Afrika davlatlari, Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy va Yaponiyani qamrab olgan. Aholini ro'yxatga olishdan maqsad soliq to'lovchilar va askarlikka yaroqli aholi sonini aniqlash bo'lgan. Shuning uchun ham, bu aholi ro'yxatlarida asosan erkaklar ro'yxatga olingan. Chunki, u paytlarda erkaklarning iqtisodiy o'rni yuqori bo'lgan, soliq to'lashda faqat erkaklar, ya'ni oila boshliqlari qatnashgan.

Aholini ro'yxatga olish jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich, tayyorgarlik bosqichi bo'lib, 2-3 yilga yaqin vaqt davom etadi.

Tayyorgarlik jarayonidagi eng muhim masala, aholini ro'yxatga olishda faol ishtirok etish bo'yicha aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borish, reklama roliklari, logotip va shiorlar ishlab chiqish hamda boshqa shu kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

Yana bir muhim vazifalardan biri bu – shahar va qishloq aholi punktlarining sxematik rejalarini va ma'muriy tumanlar xaritalarini tayyorlash hamda aholi punktlaridagi uylarning ro'yxatini tuzish hisoblanadi. Bunda mahalla, qishloq va ovullarning chegaralari, ko'chalarda nom belgilarining o'rnatilganligi, turar va noturar joylarning aniq soni hamda uylarning raqamlanganligi aniqlashtirib olinadi.

Tayyorgarlik bosqichida aholini ro'yxatga olish bilan bog'liq hujjatlar, jumladan, ro'yxatga olish varaqalari, ro'yxatga olishni tashkil etish va o'tkazish, uning natijalarini olish va e'lon qilish metodologiyasi ishlab chiqiladi.

Ikkinchi bosqich, asosiy bosqich bo'lib, bu taxminan 10-60 kungacha davom etadi. Bunda bevosita aholini ro'yxatga olish amalga oshiriladi, ya'ni aholi to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi, nazorat tekshiruvi o'tkaziladi va aholini ro'yxatga olish materiallari topshiriladi.

Mamlakatimizda 2023 yilda o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish tadbiri an'anaviy usulda, ya'ni ro'yxatga oluvchi shaxslar tomonidan hududlarda uyma-uy kirgan holda, yuzma-yuz suhbat asosida, ro'yxatga olish varaqalarini to'ldirish orqali amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich muddati qariyb ikki yilgacha bo'lib, ro'yxatga olish jarayonida to'planadigan statistik ma'lumotlar yagona elektron axborotlar tizimiga kiritilib, ma'lumotlar kodlashtirish yordamida tahlil qilinadi va natijalar e'lon qilinadi.

**D.Abdukarimov**

**Beshariq tumani ro'yxatga olish bo'limi boshlig'i**